

**NAQDSIZ HISOB-KITOBLARNI OMMALASHTIRISH
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING MUHIM KAFOLATI****Baxodir Ruziyev**Adliya vazirligi huzuridagi
Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish
ta'sirini baholash instituti Bosh maslahatchisi

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Naqsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (keyingi o'rinlarda – Farmon) iqtisodiyotning ko'plab sohalarida yangi mexanizmlarni joriy etmoqda.

Mazkur Farmonning asosiy maqsadi iqtisodiy munosabatlarning shaffofligini ta'minlash, biznes sub'ektlarini rasmiy iqtisodiyot maydoniga olib chiqish va fuqarolar uchun yanada qulay hamda xavfsiz to'lov muhitini yaratishdan iborat.

Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha yuridik shaxslar tomonidan elektron to'lovlarni qabul qilish uchun yagona QR-kod tizimi joriy etildi. 2026-yil 1-iyuldan esa mazkur QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilmaslik savdo qoidalarini buzish sifatida baholanishi belgilangan. Bu esa aholi uchun turli to'lov ilovalari o'rtasidagi cheklovlarni bartaraf etib, xarid jarayonini ancha yengillashtiradi.

Yagona QR-kod tizimining joriy etilishi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir to'lov elektron tarzda qayd etiladi va uning tarixi saqlanib qoladi. Natijada xarid qilingan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat sifati bo'yicha nizo kelib chiqqan taqdirda, fuqarolar o'z huquqlarini himoya qilish uchun ishonchli dalillarga ega bo'ladi.

Farmon bilan 2026-yil 1-apreldan boshlab ayrim tovar va xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarning faqat elektron shaklda amalga oshirilishi belgilandi. Jumladan, davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to'lovlar, alkogol va tamaki mahsulotlari savdosi, yoqilg'i quyish shoxobchalari xizmatlari hamda qiymati 25 million so'mdan yuqori bo'lgan ayrim tovar va xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar elektron shaklda amalga oshiriladi.

Bu tartib bir tomondan moliyaviy operatsiyalarning hisobini yuritishni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan yashirin aylanmalarni qisqartirishga xizmat qiladi. Xususan, alkogol va tamaki mahsulotlari savdosida elektron hisob-kitoblarning majburiylik kontrabanda mahsulotlari aylanmasini cheklash, aksiz soliqlari tushumini oshirish hamda mahsulotlarning qonuniy kelib chiqishini nazorat qilish imkonini beradi.

Farmonning yana bir muhim jihati ko'chmas mulk va transport vositalari oldi-sotdisi sohasidagi hisob-kitoblarning shaffofligini ta'minlashga qaratilganidir. Endi ko'chmas mulk obyektlari hamda ishlab chiqarilganiga o'n yildan oshmagan transport vositalari bo'yicha hisob-kitoblar bank va notarial axborot tizimlari o'rtasidagi elektron ma'lumot almashinuvi asosida amalga oshiriladi. Bu esa firibgarlik holatlarining oldini olish, bitimlarning haqqoniyligini ta'minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirishga imkoniyat yaratadi.

Farmonda tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarni qisqartirish choralari ham nazarda tutilgan. Xususan, 2026-yil 1-iyuldan boshlab tadbirkorlik subyektlarida o'tkaziladigan ayrim tekshiruvlarni bodi-kameralar yordamida amalga oshirish tartibi joriy etildi. Bu tekshiruv jarayonlarining xolisligi va ochiqligini ta'minlashga muhim qadam hisoblanadi.

Shuningdek, Farmon bilan soliq va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan qator choralar belgilangan. Ular orasida soliq nazoratini raqamlashtirish, elektron xizmat ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini kuchaytirish, tovarlar va xizmatlar harakatini elektron kuzatish tizimlarini rivojlantirish kabi muhim vazifalar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, mazkur Farmon mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, naqdsiz hisob-kitoblarni kengaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi iqtisodiy munosabatlarning shaffofligini oshirish, soliq intizomini mustahkamlash, korrupsiya xavflarini kamaytirish va aholi hamda tadbirkorlar uchun yanada qulay iqtisodiy muhit yaratishga xizmat qiladi.